

DIKROTSELIYOZ QO'ZG'ATUVCHISINING BIOLOGIYASINI O'RGANISH TARIXI VA UNING NATIJALARI

Bazarbayeva A.A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali assistent o'qituvchisi

Dikrotseliyoz qo'zg'atuvchisining biologiyasini o'rganish tarixi to'g'risida umumlashtirilgan adabiyot manba yo'q. Shunga ko'ra ushbu tezis talaba va magistr'larga uning to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga, ushbu masalada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi.

Dikrotseliyoz qo'zg'atuvchisi *Dicrocoelium lanceatum* Stiles et Hassall, 1896 barcha qishloq xo'jalik hayvonlarining jigar o't yo'llarida, qisman o't xaltasida parazitlik qiladi va u dunyoda keng tarqalgan gelmintlar qatoriga kiradi. Ushbu parazitning biologiyasini o'rganish fanda qariyb yuz yil davom etgan. Jumladan, *D.lanceatum* ni tashqi muhitga miratsidiyli tuxum ajratishi 1856-yilda J.J.Moulinie tomonidan aniqlangan. 1882-yilda F.Piana ilk bor dikrotseliyoz o'chog'idagi quruqlik mollyuskalaridan *Helix carthusiana* da parazitning serkariylarini uchratdi. Shundan besh yildan so'ng O.Linstow boshqa tur mollyuska – *Zebrina detrita* da serkariy topib, uni *Cercaria vitrine* deb atadi. Ushbu lichinkaning morfologiyasini F.Piana aniqlagan *Cercaria longocaudata* nikiga o'xshash deb ko'rsatdi.

1889-yilda R.Leuskart ayrim chig'anoqli mollyuskalarni sun'iy yo'l bilan *D.lanceatum* lichinkalari bilan zararlantirishga erisha olmadi, ammo uning miratsidiysi mollyuskaning hazm kanalida ajralib chiqishini aniqladi.

1940-yilda B.Zarnik suv mollyuskalarini *D.lanceatum* ning oraliq xo'jayin bo'lishi mumkin deb hisobladi.

1931-yilda T.V.Kameron ikki tur mollyuskalar - *Helicella itala* va *Cochlicella acuta* larni *D.lanceatum* tuxumlari bilan zararlantirib uch oydan so'ng ularda parazitning serkariylarini topgan. So'ngra ushbu mollyuskalarni ikki bosh qo'ylarga

yedirib, 4-5 oydan so'ng ularning tezagida *D.lanceatum* ning tuxumlarini aniqlagan. Shunga ko'ra muallif ushbu parazitning definitiv xo'jayinlarini uning serkariylari bilan zararlangan quruqlik mollyuskalarini o't bilan birga yeyish orqali zararlanadi degan xulosaga kelgan.

1933-yilda *O.Mattes* ham *Helicella erikorum* mollyuskasini *D.lanceatum* tuxumlari bilan zararlab, unda serkariyli sporasistalarning yetilishini o'rgandi. Shu bilan birga *O.Mattes* mollyuskalarni "uyqu"ga ketishida ro'y beruvchi modda almashinuvining susayishi dikrotseliy lichinkalarini nobud bo'lishiga olib keladi deb hisobladi.

V.Neahaus (1936, 1938) ilk bor *Helicella candidula* va *Zebrina detrita* mollyuskalarida *D.lanceatum* ning serkariylarini qiz sporasistalardan chiqib qon tomiriga o'tib o'pka venalari orqali mollyuskaning nafas olish organi bo'shlig'iga tushib shilimshiq modda bilan qo'shilishini va 200-400 tadan bo'lib "shilimshiq shar" sifatida tashqariga chiqarib yuborilishini aniqladi. Uning tajribalariga tayangan holda *V.Neygauz* hayvonlarni mollyuskalarni yutish yo'li bilan emas, balki bunday "yig'ma stist" larni iste'mol qilish orqali yuqadi deb hisobladi. Uning ma'lumotiga ko'ra dikrotseliy definitiv xo'jayin organizmida 7 haftada voyaga yetadi, shundan so'ng 4 haftadan so'ng ular tuxum ajrata boshlaydi. Shuningdek, ushbu muallif *D.lanceatum* ni definitiv xo'jayin jigariga ichak qon tomirlari orqali yetib boradi deb, uni gemotogenli yo'li deb ko'rsatdi.

W.Krull va *S.Mares* lar AQSHda 1953-1954-yillarda dikrotseliyoz qo'zg'atuvchisining biologik rivojlanishi ilk bor fanda ochib bergan bo'lsalar, O'zbekiston sharoitida parazitning birinchi va ikkinchi oraliq xo'jayinlarining turlarini, ekologiyasini, ularning *D.lanceatum* bilan zararlanish muddatlarini, ularda uning lichinkalarining rivojlanishini, qishlashini, definitiv xo'jayinlarda parazitning jigar o't yo'llariga qaysi yo'l bilan borishini, turli xil hayvonlar (qo'y, echki, qoramol, toq tuyoqli hayvon, quyon, ayrim kemiruvchilar) da parazitning voyaga yetish davrini va boshqa muhim masalalarni birinchi bo'lib ustozimiz *B.Salimov* 1961-yildan boshlab o'rganishga kirishdi. Ushbu masalaning ko'pchiligi amerikalik olimlar tomonidan

o'rganilmagan edi. Muallifning ushbu tadqiqotlari uning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida, ilmiy maqolalarida, monografiya va tavsiyanomalarida, zoologiyaning darsliklarida o'z aksini topgan. *D.lanceatum* biologiyasining muhim jihatlari o'quv jarayoniga kiritilgan, ular bo'yicha talaba va magistrlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishadi. Shunga ko'ra professor B.Salimovning dikrotseliyozni o'rganishga bag'ishlagan ko'p yillik ishlari fan va amaliyotni birmuncha boyitgan va ular uchun ilmiy maktab bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilingan ilmiy ma'lumotlar uch xo'jayin ishtirokida rivojlanuvchi dikrotseliyoz qo'zg'atuvchisining biologiyasini o'rganishda turli davlatlarning olimlari tomonidan 100 yil davomida qanchalik mashaqqatli tadqiqotlar olib borilganligini va uni muvaffaqiyatli yechilganligini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Азимов Д.А., Дадаев С., Акрамова Ф.Д., Сапаров К.А. Гелминты жвачных Узбекистана. Т.: ФАН, 2015. -222 с.
2. Иргашев И.Х. Гелминты и гельминтозы каракульских овец. Т.: ФАН, 1973. -183 с.
3. Qaypanov M.T. Qoraqalpog'iston Respublikasida qoramollar gelmintozlarining mavsumiy dinamikasi. //”Fan yutuqlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari “ ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Samarqand, 2005. 134-135 b.
4. Шульц Р.С, Гвоздев Е.В. Основы общей гельминтологии. Морфология, систематика, филогения гельминтов. – М.: Наука, 1970.-Т.1.-491 с.